

**YER MONITORINGI-ILMIY YO'NALISH SIFATIDA.(KONSEPSIYASI,  
METODOLOGIYASI, TEXNOLOGIYASI)**

**Adizova.F.N**

*“Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrasini o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *O'zbekiston respublikasida yer umummilliy bo'lik sifatida alohida e'tirof etiladi. Shunday ekan uning nazorati va boshqaruv tizimlari davlat tomonidan turli huquqiy, normativ me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Respublikadagi yer borasidagi boshqaruv va nazorat tizimi esa yer monitoringini yuritish asosida quriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Yer monitoringi, nazorat tizimi, kuzatuv, respublika monitoringi, mintaqaviy monitoring, mahalliy monitoring, yer monitoringining kichik tizimlari.*

O'zbekiston respublikasida yer umummilliy bo'lik sifatida alohida e'tirof etiladi. Shunday ekan uning nazorati va boshqaruv tizimlari davlat tomonidan turli huquqiy, normativ me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Respublikadagi yer borasidagi boshqaruv va nazorat tizimi esa yer monitoringini yuritish asosida quriladi.

Yer monitoringi bo'yicha birinchi bora hukumatlararo kengash 1979-yilda Keniyaning poytaxti Nayrobida o'tkazilgan. O'zbekiston respublikasida yer monitoringining huquqiy asosi 2000-yil 23-dekabrda Vazirlar mahkamasi tomonidan qabul qilingan 496-sonli “Yer monitoringi to'g'risida”gi nizom hisoblanadi. Bundan tashqari “Yer kodeksi”ning 14-moddasi ham aynan yer monitoringiga bag'ishlangan. “Yer kodeksi”ga ko'ra yer monitoringining ta'rifi quyidagicha: - Yer monitoringi yer tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini kuzatib turish tizimidan iborat.

Davlat yer kadastrini yuritishni, yerdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, yerlarni muhofaza qilishni axborot bilan ta'minlash yer monitoringi asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi yer monitoringini yuritish usul va uslublarini belgilaydi.

Respublika yer fondidagi ro'y beruvchi barcha o'zgarishlarni ayni vaqtida aniqlash uchun uning holati kuzatuvini olib borish, shu asosida yerlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni prognozlash, kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan salbiy jarayonlarning oldini olish hamda vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini tugatish, davlat tomonidan yer kadastrini o'tkazilishini, yer resurslaridan foydalanishni, yer tuzish jarayonini, respublikada mavjud barcha yer toifalaridan belgilangan maqsadda oqilona va samarali foydalanishni, yer fondini muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirilishini axborot bilan ta'minlash – yer monitoringining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Yer monitoringini yuritishda obyekt sifatida, foydalanish maqsadi va xarakteridan qat'i nazar butun O'zbekiston respublikasi yer fondi, ularning huquqiy rejimi qaraladi. Yerlardan foydalanish maqsadiga ko'ra monitoring olib boriladi.

Yer fondi toifalariga ko'ra yer monitoringi kichik tizimlarga ajratiladi:

- qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlar monitoringi;
- aholi punktlari yerlari monitoringi;
- sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlardagi yerlar monitoringi;
- tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsion maqsadlardagi yerlar monitoringi;
- tarixiy-madaniy maqsadlardagi yerlar monitoringi;
- o'rmon fondi yerlari monitoringi;
- suv fondi yerlari monitoringi;
- zaxira yerlari monitoring.

***Yer monitoringining vazifasi quyidagilar hisoblanadi :***

- yer fondi holati o'zgarishlarini o'z vaqtida aniqlash ustidan kuzatishlar tizimini tashkil etish va amalga oshirish, ularni baholash, salbiy jarayonlarni prognozlash hamda ularning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- davlat yer kadastri yuritilishini, yerdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan maqsadli va oqilona foydalanish, yerlarni muhofaza qilish va yer resurslarini davlat tomonidan boshqarishga doir boshqa funksiyalar ustidan davlat nazoratini axborot bilan ta'minlash.

***Yer monitoringi quyidagi turlarga ajratiladi.***

- Hududiy qamrab olinishiga ko'ra:
- Respublika monitoringi - O'zbekiston Respublikasining butun hududini qamrab oladi;
- Mintaqaviy monitoring - fizik-geografik, ma'muriy va boshqa chegaralar bilan chegaralangan hududlarni qamrab oladi;
- Mahalliy monitoring - alohida yer uchastkalari va manzara-ekologiya komplekslarini qamrab oladi.
- Yer monitoringi yuritishning mazmuni yer fondi holatini maxsus tashkil etilgan muntazam kuzatishlar (suratga olish, tekshirish va qidiruv)dan, quyidagilar o'zgarishlarini aniqlash, baholash va prognozlashdan iborat bo'ladi.

Yerga egalik qilish, yerdan foydalanish, ekinzorlar, dalalar, uchastkalar, manzara-ekologiya komplekslarining holati monitoringi olib boriladi. Yerlar unumdorligining o'zgarishiga, ularning tanazzuli va destruksiyasi (aridizatsiya va cho'llanishi, suv, irrigatsiya va shamol eroziyasi, chirindi miqdori o'zgarishi, tuproq tarkibining o'zgarishi, ohakliligi, begona o't bosganligi, sho'rlanganligi, qishloq xo'jaligi yerlarining o't bosganligi, yerlarning pestitsidlar, og'ir metallar, radionuklidlar va boshqa toksik

moddalar, sanoat, maishiy va boshqa chiqindilar bilan ifloslanishi)ga ta'sir qiluvchi jarayonlar (omillar) nazorati yuritiladi. Tabiiy ozuqabop o'tlar qoplami holatining o'zgarishi (o'simliklar tarkibi, tuzilishi, hosildorligi, sifati va to'yimligining o'zgarishi) bilan bog'liq jarayonlar kuzatuvini olib boriladi. Suv fondi yerlari monitoringida daryolar qirg'oqlarining, Orol dengizi, ko'llar, suv omborlari, irrigatsiya va gidrotexnika inshootlarining holati o'rganiladi. Jarliklar va o'pqnalar, o'pirlashlar, sel oqimlari, zilzilalar, suv toshqinlari, "degishlar", karst, yer cho'kishi, boshqa ekzogen va endogen jarayonlar va antropotexnogen hodisalar tufayli paydo bo'lgan jarayonlar, aholi yashash joylari, neft va gaz qazib olish, tozalash inshootlari, go'ngxonalar, axlatxonalar, yonilg'i-moylash materiallari, o'g'itlar, zaharli ximikatlar omborlari, toksik sanoat chiqindilari va radioaktiv materiallar ko'milgan joylar, shuningdek boshqa sanoat obyektlari yerlarining holati muntazam kuzatib tahlil etib boriladi.

Yerlarning holati o'zgarishlarning yo'nalishi va jadalligiga oid bir qancha izchil kuzatishlarni (davriy, mavsumiy, sutkalik) tahlil qilish, olingan ko'rsatkichlarni yerlarning sifat holati normativlari bilan taqqoslash orqali baholanadi. Yer holatini baholash ko'rsatkichlari muayyan davr yoki sana uchun ham absolyut, ham nisbiy ko'rsatkichlarda (o'lchov birligida) ifodalanadi.

Yerlar holatini baholash natijalariga ko'ra tezkor ma'lumotlar, axborotlar, prognozlar va tavsiyanomalar tuziladi, ularga o'zgarishlar, ayniqsa salbiy o'zgarishlarning dinamikasini, ularning yo'nalishini va jadalligini tavsiflovchi mavzuli xaritalar, kartogrammlar, jadvallar va diagrammlar ilova qilinadi.

Yer monitoringi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazi, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatdor vazirliklari va idoralari ishtirokida amalga oshiriladi.

Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari uyma-uy aylanib chiqish yo'li bilan dehqon xo'jaliklari yer uchastkalaridan va tomorqa yerlaridan maqsadli va samarali foydalanishning, shu jumladan, erga ishlov berish, urug'lik, ko'chatlar va daraxtlar o'tqazish, issiqxonalar qurish, mol va parrandalar boqish holatining muntazam monitoringini olib borish huquqiga egadir.

Vazirliklar va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish, yer monitoringi ma'lumotlarini umumlashtirish O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi (qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha) va Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda yer monitoringi Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda boshqa toifadagi yerlarda Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar ishtirokida

ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan yagona uslub bo'yicha olib boriladi, bu uslub yerlarning holatini, tezkor va muntazam kuzatish ishlarini amalga oshiruvchi, tadqiqotlar, tekshirishlar o'tkazuvchi yoki xaritalovchi barcha korxonalar va tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi.

Idoraviy mansubligidan va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yerlarni mavzuli xaritalovchi va ularning holatini kuzatuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yer resurslari va davlat kadastr bo'limlariga ularning vakolatlari doirasida yerlarning miqdori va sifati bo'yicha holati to'g'risidagi ma'lumotlarni yer monitoringi va davlat yer kadastr bo'yicha axborotlar (hisobotlar)ga kiritish uchun ko'rsatilgan ishlar bo'yicha materiallarning nusxalarini tekin beradilar.

O'z navbatida yer resurslari va davlat kadastr bo'limlari ham yerlarni mavzuli xaritalovchi va ularning holatini kuzatuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ularning so'roviga binoan zarur materiallarni tekin beradilar.

Yer monitoringi yagona klassifikatorlar, kodlar, metrik birlik tizimi, ma'lumotlarning standart formatlari va meyo'riy-texnik baza, koordinatlar va balandliklar davlat tizimiga asoslangan turli xil ma'lumotlarning bir-biriga mosligi prinsipiga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

***Yer monitoringini o'tkazishda zarur axborotlarni olish uchun quyidagilar qo'llaniladi:***

- masofadan turib zondlash (aerokosmik suratga olish va kuzatishlar);
- yerda suratga olish va kuzatish;
- fond materiallari.

***Muddatlari va davriyligiga ko'ra yerlarning holatini uchta guruhda kuzatishlar amalga oshiriladi:***

- bazaviy (er monitoringini yuritishning dastlabki bosqichida kuzatish obyektlarining haqiqiy holatini qayd etuvchi boshlang'ich) kuzatishlar;
- davriy (yillik va tabiiy tUSDagi davrlar bo'yicha) kuzatishlar;
- tezkor (joriy o'zgarishlarni qayd qiluvchi), bir yildan kam oraliq davrda muntazam yoki bir yo'la bajariladigan kuzatishlar.

Ekin maydonlari, dalalar, uchastkalar, manzara-ekologiya komplekslari holatini bevosita kuzatishda olingan bazaviy (boshlang'ich) ma'lumotlar tumanlar, shaharlar, qo'rg'onlar, viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va umuman O'zbekiston Respublikasi bo'yicha, shuningdek alohida tabiiy komplekslar bo'yicha umumlashtiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida yerlarning bazaviy va davriy monitoringi — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastr boshqarmalari tomonidan yuritiladi.

Yerlarning tezkor (navbatchi) monitoringi tumanlar va shaharlardagi bazaviy va davriy monitoring ma'lumotlaridan foydalangan holda — tumanlar (Quvasoy shahar)

qishloq xo'jaligi bo'limlari va Kadastr agentligi tumanlar (shaharlar) bo'limlari tomonidan yuritiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va viloyatlar qishloq xo'jaligi boshqarmalari (qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha), Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari Davlat ekologiya qo'mitasining hududiy organlari bilan birgalikda har yili 1-fevraldan kechiktirmay mahalliy davlat hokimiyati organlariga, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligiga,

Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga, Davlat ekologiya qo'mitasiga mintaqadagi yerlarning holati to'g'risida axborotlar (hisobotlar) taqdim etadilar, o'ta xavfli va yo'l qo'yilishi cheklangan jarayonlar aniqlanganda tezkor ma'lumotlar yuboradilar.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va jismoniy shaxslar yer monitoringi ma'lumotlaridan belgilangan tartibda haq to'lagan holda foydalanadilar. Yer monitoringini yuritish bo'yicha ishlar davlat budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Yer monitoringi bo'yicha davlatlararo va xalqaro dasturlarni mablag' bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan tuzadigan bitimlari va shartnomalarida belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Худойбердиев, Ф. Ш., Бобожонов, С. Ў., & Мухаматов, Қ. М. Ў. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁ МАМЛАКАТЛАРИДА ЧИКИНДИ ОБЪЕКТЛАРИНИ БОШҚАРИШНИНГ БУГУНГИ ҲОЛАТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 967-976.

2.Xudoyberdiev F.Sh, Mumadov Q.M, Bobojonov S.O, & Saidov S.S. (2022). CHIKINDI POLIGONLARNING ATROFIDAGI EKIN ERLAR, SUV HAVZALARI VA AHOLI YaShash JOYLARIGA ZARARINI O'RGANISH HAMDA BU BO'RADAGI XORJIY TAJRIBALAR TAHLILI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589959>

3.Sh, Khudoyberdiyev F. "Monitoring the Location of Cultivated Lands, Settlements and Water Basins in the Selection of Land for Location of Waste Landfills and Inclusion of Them in the Geo Database." *Kresna Social Science and Humanities Research* 8 (2022): 53-59.

4.Sh, Khudoyberdiyev F. "FORMATION OF A GEODATABASE OF WASTE LANDFILLS AND GEOVISUALIZATION BASED ON GEOINFORMATION TECHNOLOGIES." "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. 2022.

5.Pirimov, J. J., Khudoyberdiyev, F. S., Muhamadov, K. M., & Axtamov, S. F. (2021). Modern Geographic Information Systems in Land Resource Management. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 8, 66-69.

6. Khudoyberdiyev Feruz Shamshodovich, Bobojonov Said Utkirovich, & Mukhamadov Kamariddin Mukhtarovich. (2021). INNOVATIVE APPROACH TO PASTURE MANAGEMENT AND PRODUCTIVITY IMPROVEMENT. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(05), 491–494. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/7VQ69>
7. Sh, F. (2020). Khudoyberdiyev Measures to prevent degradation of pastoral lands. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, 7(3).
8. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtarovich, M. K. (2021). Achieve Effective Results Through Pasture Management. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 3, 9-12.
9. Khudoyberdiyev, F. S. (2020). "Development of Effective Methods for the Use of Pasture Land" *International Journal of Advanced Research in Science. Engineering and Technology*, 7(3).
10. Khudoyberdiyev, F. S. (2020). "Measures to Prevent Degradation of Pastoral Lands" *International Journal of Advanced Research in Science. Engineering and Technology*, 7(3).
11. Sh, F. (2020). Khudoyberdiyev Development of effective methods for the use of pastureland. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, 7(3).
12. Худойбердиев, Ф. Ш. (2019). Научная статья «Улучшение пастбищ, создание новых пастбищ и разработка эффективных методов использования пастбищ». *Вестник Хорезмской Академии Мамуна*, 17-20.
13. Худойбердиев, Ф. Ш., Шарипова, Ф. К., Бобожонов, С. У., & Мухаматов, К. М. (2014). РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПАСТБИЩНЫХ ЗЕМЕЛЬ. *The Way of Science*, 69.
14. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, May). Innovative approach to rational use of pastures and increasing productivity. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 76-78).
15. Shamshodovich, K. F., Akhtamov, S., Muhammadov, K., & Bobojonov, S. (2021). THE IMPORTANCE OF THE CLUSTER SYSTEM TODAY. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6, 3-3.
16. Худойбердиев, Ф. Ш. (2020). Зарубежный опыт в области пастбищных территорий, возможности и условия их использования в Узбекистане. *Землеустройство, кадастр и мониторинг земель*, (10), 24-27.
17. Xudoyberdiyev, F. S. (2020). TAKRORIY EKIN-QO ‘SHIMCHA DAROMAD. *Студенческий вестник*, (24-6), 47-48.